



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YENGIL SANOAT KORXONALARI SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Safina Nafisa Talgatovna

*Andijon mashinasozlik instituti, "Buxgalteriya
hisobi va menejment" kafedrasи katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida yengil sanoat korxonalari sifat menejmenti tizimini rivojlanirish muhimligi asoslab berilgan, baholash usullari takomillashtirilgan, tahlillar asosida rivojlanirish strategiyasi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, sifat menejmenti, sifat menejmenti tizimi rivojlanishini baholash, innovatsiyalar, rivojlanirish strategiyasi, raqamli texnologiyalar, samaradorlik.

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА ПРЕДПРИЯТИЙ ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОВ ЕЁ ОЦЕНКИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Сафина Нафиса Талгатовна

*Андижанский машиностроительный институт,
Старший преподаватель кафедры
«Бухгалтерский учет и менеджмент»*

Аннотация. В статье обоснована важность развития системы менеджмента качества предпредприятий легкой промышленности в условиях цифровой экономики, усовершенствованы методы её оценки, а также на основе анализа разработаны стратегия её развития.

Ключевые слова: цифровая экономика, менеджмент качества, оценка развития системы менеджмента качества, инновации, стратегия развития, цифровые технологии, эффективность.

ISSUES OF DEVELOPMENT OF THE QUALITY MANAGEMENT SYSTEM OF LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES AND IMPROVEMENT OF METHODS FOR ITS EVALUATION IN THE CONDITIONS OF THE DIGITAL ECONOMY

Safina Nafisa Talgatovna

*Andijan Machine-building Institute,
Senior Lecturer at the Department of Accounting and Management*

Abstract. The article substantiates the importance of developing a quality management system for light industry enterprises in the digital economy, improved methods for its assessment, and developed a strategy for its development based on the analysis.

Key words: digital economy, quality, quality management, assessment of the development of the quality management system, innovation, development strategy, digital technologies, efficiency.

Kirish. Mahsulot sifatini oshirish – jahondagi barcha etakchi tashkilotlar uchun xos bo'lgan faoliyatining muhim yo'nalishitdir. Xozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish – ichki va tashqi bozorlarda uning raqbatbardoshligining asosiy sharti hisoblanmoqda. Mahsulotning raqobatbardoshliligi ko'pincha mamlakatning prestijini belgilab beryapdi va milliy boylikni oshirishning hal qiluvchi omili bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlanirish, insonlar turmush darajasini yaxshilash, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Korxonalarning aynan texnik-texnologik rivojlanish dara-

jasi va mahsulotining yuqori darajadagi sifati – raqamli iqtisodiyot, fan-texnika texnika taraqqiyoti, resurslarni tejash kerak bo'lgan sharoitlarda uning "yashab" qolishining, raqobatda yutib chiqishining muhim sharti bo'lib qolmoqda.

"Industriya 4.0" ishlab chiqarishning baracha jarayonlari va bosqichlarini tobora ko'proq avtomatlashtirishni anglatadi: mahsulotning raqamli dizayni, uning virtual nusxasini yaratish, muhandislar va dizaynerlarning yagona raqamli dizayn byurosida hamkorligi, zavoddagi uskunalarini masofadan sozlash ushbu "aqlii" mahsulotni chiqarish uchun texnik talablarga javob berishi, kerakli qismlarga kerakli miqdorda avtomatik buyurtma berish, raqamli texnologiyalar asosida

sifatni boshqarish, ularni etkazib berishni nazorat qilish, tayyor mahsulotni fabrikadagi ombordan do'konga va oxirigacha kuzatib borish. Axborot texnologiyalari ta'sirida sohada yuz beradigan o'zgarishlar mahsulot va xizmatlar sifatini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Bu mijochning ishonchi va qoniqishini oshiradi. Ishlab chiqaruvchilar ham isrofgarchilikka uchramaydilarni. "Industriya 4.0" da paydo bo'lgan yangi yondashuvlar va biznes modellar ularga ko'proq pul ishlashga imkon beradi va shuning uchun mahsulotlarni yaxshilashga mablag' sarflaydi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalari sifat menejmenti tizimini rivojlantirish masalasi axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, bozorda korxonaning imidjini shakllantirish uchun hamkorlarning tarmoqli o'zarो faoliyati va korxona faoliyatida faol ishtiroki bilan bog'liqidir.

Sifat menejmenti tizimining raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlanishi tashkilot boshqaruvining tamoyillarini, usullarini takomillashtirish bilan bog'liqidir. Ushbu transformatsiyalar natijasida esa yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish va sotish, foydani oshirish, raqobat kurashida g'olib chiqish, imijni orttirish mumkindir. Sifat menejmenti tizimini rivojlantirish masalasi dolzarbdir, ammo xozirda usbu jarayonlarni baholash usullari hali rivojlanmagan. Raqamli iqtisodiyotga o'tish sababli sifat menejmenti tizimini rivojlantirish va uni baholash usullarini takomillashtirish masalasi xozirda kam o'rganilgan, shuning uchun ushbu mavzu dolzarbdir, va ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga egadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sifat menejmenti tizimlari bo'yicha amerikalik mutaxassis Djozef Djuran sifat tushunchasini ikki taraflama ko'rib chiqqan: Ob'ektiv tomondan sifat – foydalanish uchun yaroqlililik; sub'ektiv tomondan esa – sifat iste'molchilar talablarining qondrilish darajasidir. Sifatni amalga oshirish uchun ishlab chiqaruvchi iste'molching talablarini bilsishi kerak va mahsulotni ushbu talablarni qondira oladigan qilib, ishlab chiqarish kerak [1].

Yaponiya mutaxassisi K. Ishikava fikricha mahsulot sifatining oshishi bilan narxlarning oshishi haqida gapirish axloqsizdir, chunki sifatning oshishi - ishlab chiqarish barqarorlashishi, nuqsonlarning kamayishi, xarajatlarning kamayishi va natijada mahsulot tannarxi va narxlarning pasayishi bilan bog'liqidir. K.Ishikava, shuningdek, narxning oshishi faqat iste'molchi texnik jihatdan yangi darajadagi mahsulotni olganda muhokama qilinishi mumkinligini ta'kidlab o'tgandir. Ammo bu holatda ham, ishlab chiqarish jarayonini tartibga solish, barqarorlashtirish va sozlash va "yetkazib beruvchi - ishlab chiqaruvchi - iste'mol-

chi" zanjiri faoliyatini tartibga solish, sifat menejmenti tizimini rivojlantirish orqali keyingi xaratatlarni kamaytirishni darhol rejalashtirish kerak deydi. Bu kompaniyaning iqtisodiy muvaffaqiyati, sanoatning rivojlanishi va mamlakat hayotiyligining kalitidir [2].

Bilamizki hozirgi kunda raqamlashtirish va raqamli texnologiyalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Sifat menejmenti tizimini (SMT) takomillashtirish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat mahsulot (xizmatlar) sifatini yaxshilaydi, balki korxona salohiyati, foyda va raqobatbardoshlikning o'sishi ta'minlaydi. Raqamlashtirishning sifat menejmenti tizimlariga ta'sirini aniqlashga bag'ishlangan xalqaro tadqiqotlar orasida P.Korrea va A.Fernandesning ishlarini ajratib ko'rsatish mumkin. P.Korrea va A.Fernandes Osiyo va Sharqiy Yevropa kompaniyalarini xalqaro o'rganish doirasida o'z faoliyatida axborot texnologiyalari va innovatsiyalardan foydalanish hamda sifat menejmenti texnologiyasi sifatida ISO 9000 standarti o'rtaсидagi mustahkam bog'liqlikni aniqladilar. Ular sifat menejmenti faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ni joriy etish raqobatchilar yoki yetkazib beruvchilar bosimidan ko'ra ko'proq iste'molchi bosimi bilan bog'liqligini isbotladilar [3].

SMTni samaradorligini baholash sohasidagi tadqiqotlarni ko'rib chiqish asosida shuni xulosa qilish mumkinki, sifat menejmenti tizimi rivojlanishini baholash bo'yicha tadqiqotlarda (1-jadval) bo'shliq mavjud bo'lib, ushbu sohada izlanishlar olib borish zarurligi aniqlandi [4].

Biz tadqiq etayotgan muammoning o'rganilganlik darajasini tahlil qilish asosida shunday xulosa chiqarish mumkinki, mazkur taqiqot mavzusining alohida jixatlari o'rganib chiqilgan, ammo raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalari sifat menejmenti tizimini rivojlantirish va baholash usullarini takomillashtirish masalasi hali to'liq o'rganib chiqilmagan. Mazkur masalarning ilmiy-uslubiy jihatlarini rivojlantirish, uning omillarini tadqiq qilish, raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalari sifat menejmenti tizimini rivojlantirish va baholash usullarini takomillashtirish asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari kam o'rganilgan.

Tadqiqot metodikasi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida yengil sanoat korxonalari sifat menejmenti tizimini rivojlantirish va baholash usullarini takomillashtirish bo'yisha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni va statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, ko'rrelyatsion tahlil o'tkazish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiya, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez usullaridan keng foydalanilgan.

1-jadval

Sifat menejmenti tizimi rivojlanishini baholash bo'yicha turli yondashuvlar

T/R	SMT samaradorligini baholash bo'yicha yondashuvlar	Yondashuv asoschilari	Sifat menejmenti tizimini rivojlanishini baholash ko'rsatkichlari	SMTni rivojlanishini baholash usullari	SMT samaradorligi ko'rsatkichlari
1	Tizimli yondashuv	T.Piters, S.N.Vereshagina, S.M.Vdovin, T.A.Salimova, V.D.Dorofeev	tashkilotni boshqarish va liderlik darajasi; steykxolderlar bilan aloqlar mustahkamligi; kadrlar va ularning malakasi.	Mavjud emas	sifatli mahsulot ishlab chiqarilishi; tannarx pasayishi; kadrlarni o'qitish rejasini bajarilishi, korxona malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirilishi
2	Boshqaruvo bo'yicha yondashuv	Listopadova Ye.V., Vinarik V.A., Tavasiev, I.A., Yashin N.S., Popova L.F., Grigoryan Ye.S., Grimashevich O.N.	Boshqaruvning professionallik darajasi; belgilangan standartlarni bajarilishi darajasi; ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qo'yilgan talablarga mosligi; iste'molchilarni ishonchini qozonish darajasi; yetkazib beruvchilar hom-ashyosi sifati; korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari; biznes jarayonlari ko'rsatkichlari; xodimlarning samaradorlik ko'rsatkichlari; korporativ ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlari; kadrlar qo'nimsizligi darajasi; innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari.	Mahalliy va xalqaro reytingda o'rnini aniqlash metodlari; Sertifikatsiyalash; Iqtisodiy tahsil.	Boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlarining yaxshilanishi; globalizatsiya; brendni tanilishi; korxona imidji yaxshilanishi; xalqaro reytinglarda yuqori o'rinalish; hamkorlarning ortishi; rentabellik ortishi.
3	Marketing bo'yicha yondashuv	M.Yu.Starenkov, E.V. Tixomirova	mijozlar talablari; tahkilot kompetenesiyalari; marketing faoliyati ko'rsatkichlari; Call-markazlarning faoliyati; Mijozlarning loyallik (sodiqlik) dasturlarini amalga oshirish; korxona faoliyatiga innovatsion mahsulotlar yoki xizmatlarni joriy etish;	Mavjud emas	Iste'molchilarning istaklarini qondirish; sifatning ortishi; rentabellikni ortishi; xarajatlarning pasayishi.
4	Raqamlı texnologiyalar va raqamlashtirish darajasi bo'yicha yondashuv	-	Internet xizmatidan foydalanish darajasi; BIG data dan foydalanish darajasi; Internet of things; kompleks raqamlastirish darajasi; kadrlarnig malakasi; kiberxavfsizlik ta'minlanganligi darajasi	Mavjud emas	Iste'molchilarning individual istaklarini qondirish; sifatning ortishi; bozor injikliklariga tezkor moslasish; rentabellikni ortishi; transaksion xarajatlarning pasayishi; shaffoflik ortishi; oldingi yo'l qo'yilgan kamchiliklani kompleks tezkor tahsil qilish imkoniyati.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Sifat menejmenti tizimi

– korxonada sifat sohasida siyosat olib borish va maqsadlarni ishlab chiqish, shuningdek ushbu maqsadlarga erishish uchun tashkilotda yetakchilikni ta'minlaydigan o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir qiluvchi elementlar, tashkiliy tuzilmalar, jarayon-

lar va manbalar majmuasidir[5]. *Sifat menejmenti tizimining maqsadi* - har bir mahsulot yoki xizmat birligini nazorat qilish emas, balki nuqson yoki defekt bo'lishi mumkin bo'lgan ishdagi mumkin bo'lgan xatolarni istisno qilishdir. Buning uchun yuqori sifatli mahsulot yoki xizmatni yaratish

uchun qanday harakatlar to'g'ri ekanligini aniqlash, harakatlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalarни ishlab chiqish, ularni nazorat qilish, tahlil qilish va baholash kerak [5] [6]. Sifat menejmenti tizimi samarali ishlashi uchun eng avvalambor rahbariyat tomonidan doimiy ravishda SMT rivojlanishini tahlil etilishi va monitoring o'tkazilishi zarur.

Raqamli iqtisodiyot korxona sifat menejmenti tizimini rivojlanishiga alohida talablar qo'yadi. Eng avvalambor, korxona faoliyatida axborot kommunikatsion texnologiyalardan keng foydalanish, SMT natijaviyligi va samaradorligini doimiy ravishda tahlil qilish, mahsulot va xizmatlarning sifatini shakllantirish, innovatsiyalarni kiritish, kompaniya imidjini oshirish tadbirlari dan foydalanish va boshqalar. Bu esa kompaniya SMTni bir qancha tamoyillar asosida tuzilgan bo'lishini talab etadi, ya'ni innovatsiyalarga asoslanganlik, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanganlik, resurslar bilan ta'minlanganlik, tashqi o'millar o'zgarishiga tez moslashuvchanlik va boshqalar [6] [7].

Mazkur tadqiqotda muallif SMT mazmuni va mohiyatini, uni rivojlantirish omillarini tahlil qilish asosida iqtisodiyotni *raqamlashtirish sharoitida yengil sanoat korxonalarini sifat menejmenti tizimini rivojlanishini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb topilgan*: korxona sifat menejmenti tizimining innovatsionligi (I); korxonadagi harakatlarning uyg'unlik darajasi (U); korxona sifat menejmenti tizimining umumiyy strategiyaga mosligi (S); korxona sifat menejmenti tizimining turli sharoitlarga moslashuvchanligi (M); korxona sifat menejmenti tizimining texnologik jihatdan mustahkamligi (T).

Ko'rsatkichlar tizimi xorijiy mualliflar tomonidan o'tkazilgan bir qator shunga o'xshash tadqiqotlarni o'rganish asosida ishlab chiqilgan [8] [9]. Tadqiqot o'tkazish uchun tanlab olingan yengil sanoat korxonalarining rahbarlari, bo'lim boshliqlari, sifat menejmenti bo'limi boshliqlari orasida anketa yordamida so'rovnama o'tkazilgan.

Muallif keyingi bosqichlarda korrelyatsion tahlil o'tkazish uchun Laykert shkalasi yordamida sifat ko'rinishdagi ko'rsatkichlarni miqdor ko'rinishiga o'tkazishni maqsadga muvofiq deb topdi. Baholashda 5 ballik Laykert shkalsidan foydalilanigan. Bunda javoblarni baholash ballari quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi: "yuqori darajada" - 5 ball, "o'rtalik darajada" - 4 ball, "past darajada" - 3 ball, "unday emas" - 2 ball, "mutlaqo unday emas" - 1 ball [8].

Tadqiqot Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan yengil sanoat korxonalarini misolida o'tka-

zilgan. 2022 yilda viloyatimizda jami 2884 ta tekstil va kiyim ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi yengil sanoat korxonasi faoliyat yuritayotganligi aniqlandi [10]. *Muallif Andijon viloyatida joylashgan yengil sanoat korxonalarini va ularning sifat menejmenti tizimlarini o'rganishni maqsad qilib olgan* (tanlov turi – oddiy tasodifiy).

Korxonalar sifat menejmenti tizimini tadqiq etish davomida ularning har biri alohida hussusiyatlarga egaligini hisobga olish zarur. Yengil sanoat korxonalarida turli xil mahsulot ishlab chiqarilishini, shuningdek ushbu korxonalarining, tashkil topgan yili, hajmi turli xil bo'lganligini hisobga olib, ushbu korxonalar sifat menejmenti tizimi rivojlanishini baholash mexanizmini ishlab chiqish davomida quyidagicha tasniflash zarurligini maqsadga muvofiq deb topildi (2-jadval).

Ekspert baholash 5ta blokdagi har bir savol javobining o'rtacha ko'rsatkichi va har bir guruh bo'yicha bajarilgan. Keyinchalik Laykert shkalasi bo'yicha integral baholari hisoblangan. Korxonalar sifat menejmenti tizimlarining rivojlanganlik darajasi innovatsionligi (I), harakatlarning ug'unligi (U), umumiy strategiyaga mosligi (S), moslashuvchanligi (M), texnologik jahatdan mustahkamligi (T) kabi ko'rsatkichlarining baholanishiga qarab aniqlash mumkin. So'rovnama ishtirokchilarining javoblarini tahlil qilish uchun har bir ko'rsatkich bo'yicha o'rta arifmetik miqdorini hisoblab chiqildi. Orta arifmetik ballar tadqiq o'tkazilayotgan korxonalar tasniflash ko'rsatkichlari bo'yicha ajratilgan guruuhlar va sifat menejmenti tizimining rivojlanganlik parametrlari bo'yicha hisoblangan. Natijaviy ko'rsatkichlar jamlanmasi 2-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqot davomida korxonalar sifat menejmenti tizimlarining innovatsionligi (I), harakatlarning ug'unligi (U), umumiy strategiyaga mosligi (S), moslashuvchanligi (M), texnologik jahatdan mustahkamligi (T) kabi ko'rsatkichlarining va korxonalar yoshi, faoliyat yonalishi, kattakichikligi, xalqaro sertifikatga egaligi orasida korrelyatsion bog'liqlik mavjudligini aniqlash uchun Pearson koeffitsientini hisoblash orqali amalga oshirdik va quyidagi natijalarga erishdik (3-jadval).

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra korxonalar sifat menejmenti tizimini rivojlanish darajasi ko'rsatkichlari orasida o'zaro chiziqli bo'g'liqlik mavjudligi aniqlandi va statistik ahamiyatga egaligi tasdiqlandi. Korrelyatsiya darajasining yuqori darajaga ekanligi sifat menejmenti tizimi rivojlanishida korxona faoliyati innovatsionligi, strategiyasi bilan uyg'un holda borayotganligi ko'rsatib beradi.

**Korxonalarining tasniflanishi bo'yicha sifat menejmenti tizimi rivojlanishi
darajasi o'rtacha baholari**

T/r	Korxona tasniflash yo'nalishi	Tasniflash bo'yicha korxona turi	Korxonalarini sifat menejmenti tizimini rivojlanishini baholash ko'rsatkichlari	Korxona sifat menejmenti tiziminining innovatsionligi	Korxonadagi harakatharning uyg' unlik darajasi	Korxona sifat menejmenti tiziminining umumiyy strategiyaga mosligi	Korxona sifat menejmenti tiziminining turli sharoitlarga moslashuvchanligi	Korxona sifat menejmenti tiziminining texnologik jihatdan mustahkamligi
			Shartli qisqartmalar	I	U	S	M	T
	Faoliyati yo'nalishi bo'yicha	To'qish, tikish	TTk	3,50	3,05	3,35	3,15	2,51
		Ip yigirish, to'qimachilik va tayyor mahsulot ishlab chiqarish	ITTk	4,05	3,45	4,15	4,15	4,11
		Klaster (hom ashyodan to tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha)	Kl	4,20	3,75	4,45	4,35	4,53
	Xodimlar soni bo'yicha	(100 tagacha xodimi bo'lgan)	Kk	3,50	3,05	3,35	3,15	2,51
		(101-250tagacha bo'lgan)	O'k	4,05	3,45	4,15	4,15	4,11
		(xodimlar soni 250dan yuqiri bo'lsa)	Yk	4,20	3,75	4,45	4,35	4,53
	Yoshi bo'yicha	5-10 yilgacha faoliyat yuritayotgan bo'lsa	O	4,13	4,13	4,30	4,25	4,32
		10 yildan yuqori	T	3,50	3,05	3,35	3,15	2,51
	Sifat menejmenti tizimi ISO 9001:2015 sertifikatiga egaligi bo'yicha	ISO 9001:2015 sertifikatiga ega	Xsb	4,13	4,13	4,30	4,25	4,32
		ISO 9001:2015 sertifikatiga ega emas	Xsy	3,50	3,05	3,35	3,15	2,51

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Korxonalar sifat menejmenti tizimi rivojlanishini baholash ko'rsatkichlari o'zaro bog'liqligi statistik korrelyatsion tahlili (Pearson koeffitsienti)

		Y (o'zgaruvchan)				
		I	U	S	M	T
X (o'zgarmas)	I	1	0,8829306	0,998841	0,9993179	0,9999721
	U	0,882931	1	0,8837303	0,8761759	0,8797662
	S	0,998841	0,8837303	1	0,9964524	0,998627
	M	0,999318	0,8761759	0,9964524	1	0,9994928
	T	0,999972	0,8797662	0,998627	0,9994928	1

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, kompaniyalar raqamlashtirishga intilayotganda, menejerlar barcha ichki tashkiliy boshqaruv tizimlari yangi talablarga javob berishini, ularning qaysi biri sifat menejmenti tizimi samaradorligini oshirishga ko'proq hissa qo'shishini bilishlari kerakligi aniqlandi. Ushbu parametrarning sifat menejmenti tizimi samaradorligining sifat, moliyaviy, ilmiy va texnik parametrlarining o'sishiga ta'sirini aniqlash asosida sifat menejmenti tizimini ishlab chiqishning maqsadga muvofiqligini aniqlash uchun baholash sxemasi ishlab chiqildi. Ushbu baholash sxemasi sifat menejmenti tizimi ni ishlab chiqish parametrlarining sifat menejmenti tizimi samaradorligini oshirishda ishtirok etish qobiliyatini ochib beradi.

Muallif tadqiqot davomida bir qator olim-larning ishlarini o'rGANIB chiqib, sifat menejmenti tizimining samaradorligi korsatkichlarini quyidagicha tasniflagan:

- *moliyaviy ko'rsatkichlar* (foyda va rentabellikning ortishi, xarajatlarning kamayishi);
- *ilmiy-texnik va texnologik rivojlanish ko'rsatkichlari* (zamonaviy texnika va texnologiyalar dan foydalanish, texnik qayta qurollanish, fond qaytmi);

- *kadrlarga oid ko'rsatkichlar* (mehnat unumdarligining ortishi, kadrlar qo'nimsizlik darajasini pasayishi);

- *ijtimoiy ko'rsatkichlar* (biznesning ijtimoiy javobgarligining ortishi, kompaniya imidjining ortishi);

- *mahsulot va xizmatlar sifat ko'rsatkichlari* (mahsulot va xizmatlarning belgilangan standartlarga mosligi, iste'molchilarining qoniqish darajasining ortishi).

Muallif yengil sanoat korxonalari sifat menejmenti tizimi rivojlanishini baholash ko'rsatkichlarining sifat menejmenti tizimi samaradorligiga ta'sir etishini statistik tahlil otkazishni o'z oldimizga maqsad qilib olingan. Statistik tahlil o'tkazishda *mustaqil o'zgaruvchilar sifatida SMT rivojlanishini baholash ko'rsatkichlarini, qaram o'zgaruvchilar sifatida esa - SMT samaradorligi ko'rsatkichlarini* tanlab oldik. Muallif tadqiqotni Andijon viloyatida joylashgan yengil sanoat korxonalarining o'rtacha iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari asosida o'tkazgan (4-jadval). Unda korxonalarda 2022 yilda mehnat unumdarligi, fond qaytmi, rentabelli, sifatli mahsulot ulushi kabi erishilgan samaradorlik ko'rsatkichlari aks ettirilgan [10].

Yengil sanoat korxonalarining guruhanishi bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari (2022 y.)

T/r	Korxonalar guruhanishi		Mehnat unumdarligi (mln.so'm/kishi)	Fond qaytmi, (so'm/so'm)	Rentabelli (%)	Sifatli mahsulot ulushi (%)
1	Faoliyati yo'nalishi bo'yicha	TTk	22,89	1,44	10,28	80,5
2		ITTk	195,71	3,12	12,09	82,8
3		Kl	549,02	7,82	11,66	83,72
4	Xodimlar soni bo'yicha	Kk	22,89	1,44	10,28	80,5
5		O'k	195,71	3,12	12,09	82,8
6		Yk	549,02	7,82	11,66	83,72
7	Faoliyat davri bo'yicha	5-10 yil	372,36	5,47	11,88	83,26
8		10 yildan yuqori	22,89	1,44	10,28	80,5
9	Sifat menejmenti tizimi ISO 9001:2015 sertifikatga egaligi bo'yicha	Xsb	372,36	5,47	11,88	83,26
10		Xsy	22,89	1,44	10,28	80,5

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Sifat menejmenti tizimi rivojlanishini baholash ko'rsatkichlarining samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sir etishining statistik (korrelyatsion) tahlilini o'tkazish natijasida ma'lumotlari dan ko'rinish turibdiki, sifat menejmenti tizimi ning rivojlanganligi, ya'ni innovatsionligi va moslashuvchanligi, strategiyaga mosligi, texnologik rivojlanganligi yuqori bo'lgan tashkilotlarda sa-

maradorlik ko'rsatkichlari, ya'ni rentabellik, yuqoriroq darajaga ega bo'lgan(5-jadval). Usbu korxonalarda sifatli mahsulot ulushi ham yuqori darajaga ega bo'lgan. Korxona samaradorligiga uning innovationsligi, texnologik jihatdan rivojlanganligi, strategiyaga mosligi eng katta ta'sir ko'rsatgan.

5-jadval

Sifat menejmenti tizimi rivojlanishini baholash ko'rsatkichlarining samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sir etishining statistik (korrelyatsion) tahlili (Pearson koeffitsienti)

Ko'rsatkichlar		Sifat menejmenti tizimi rivojlanishini samaradorlik ko'rsatkichlari			
		Mehnat unumdarligi	Fond qaytimi	Rentabellik	Sifatli mahsulot ulushi
Sifat menejmenti tizimi rivojlanishini baholash ko'rsatkichlari	(I)	0,9113	0,8816	0,9472	0,9983
	(U)	0,8425	0,8220	0,8046	0,8856
	(S)	0,9297	0,9029	0,9309	0,9999
	(M)	0,8955	0,8636	0,9584	0,9955
	(T)	0,9082	0,8781	0,9495	0,9979

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Korxona SMT innovationsligi, harakatlar uyg'unligi, strategiyaga mosligi, tashqi muhit omillariga moslashuvchanligi, texnologik jihatdan mustahkamligi kelajakda mahsulot sifatini ortishiga va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini yaxshilanishiga olib keladi. Muallifning gipotezasi, ya'ni korxona sifat menejmenti rivojlansa uning samaradorligi ortadi degan fikri isbotlandi.

Muallif yuqoridagi ma'lumotlariga asosan kelajakda yengil sanoat korxonalarida texnologik jihatdan mustahkamligini oshirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirish choralar ko'riliши kerak deb hisoblaydi.

1-rasmida muallif tomonidan ishlab chiqilgan korxona sifat menejmenti tizimini rivojlantirish strategiyasini tasvirlangan.

Maqsad - sifat menejmenti tizimini rivojlantirish asosida samaradorlikni va raqobatbardoshlikni oshirish

Vazifalar:

- kompaniyani innovations rivojlantirish va imidjini oshirish;
- mahsulot sifatini va raqobatbardoshligini oshirish;
- korxona samaradorligini oshirish.

Kutilayotgan samara:

- iste'molchi talablariga tez moslashish;
- korxona imidjini ortishi va haridorlar sonini ortishi;
- raqobatbardoshlikning ortishi;
- sotish hajmini ortishi;
- harajatlarni kamayishi;
- mehnat unumdarligini ortishi;
- ish haqi fondini qisqarishi;
- tranzaksion xarakatlarning kamayishi;
- samaradorlikni ortishi.

Strategiyani amalga oshirish bosqichlari:

- Korxona faoliyatiga innovations texnika va texnologiyalarni joriy etish;
- Korxona xodimlarini raqamli texnologiyalar bo'yicha malakasini oshirish;
- Sifatni boshqarish va nazorat qilish bo'yicha malakali kadrlarni izlash va ishga olish (shu jumladan xorijiy mutaxassislarini);
- Sifat menejmenti tizimi steykholderlarini talablarini o'rganib, o'zaro bir kelishuvga keltirish;
- Sifatni boshqarishga korxonaning barcha mutaxassislarini jaib qilish (sifat to'garaklarini joriy etish);
- Xodimlarni sifatni oshirishga motivatsiyasini oshirish;
- Sifat menejmenti tizimi faoliyatini uzluksiz nazorat qilish va baholash.


1-rasm. Korxona sifat menejmenti tizimini rivojlantirish strategiyasi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijasida sifat menejmenti tizimi ni rivojlantirishni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb topildi:

1. Korxona faoliyatiga innovatsion texnika va texnologiyalarni joriy etish;
2. Korxona xodimlarini raqamli texnologiyalar bo'yicha malakasini oshirish;
3. Sifatni boshqarish va nazorat qilish bo'yicha malakali kadrlarni izlash va ishga olish (shu jumladan xorijiy mutaxassislarini);

4. Sifat menejmenti tizimi steykxolderlari ni xoxish-istikclarini o'rganib, o'zaro bir kelishuvga keltirish;
5. Xodimlarni sifatni oshirishga motivatsiyasini oshirish;
6. Sifat menejmenti tizimi faoliyatini uzlusiz nazorat qilish va baholash.



2-rasm. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona sifat menejmenti tizimini rivojlantirish modeli

Manba: muallif ishlanmasi.

Muallif tomonidan strategik maqsadlarga erishish uchun raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona sifat menejmenti tizimini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Unga asosan tashqi va ichki muhit omillarini hisobga olgan holda korxona sifat menejmenti tizimi rivojlanish darajasi baholanib, rivojlanish darajasi aniqlanadi, muammolar aniqlangandan so'ng, tizimni strategik rivojlantirish yo'naliishlari amalgalashiriladi.

Xulosa va takliflar. Andijon viloyatida joylashgan yengil sanoat korxonalarini sifat menejmenti tizimining rivojlanishini baholash natijasida quyidagi hulosaga kelish mumkin:

- korxonalarining sifat menejmenti tizimi xalqaro standart talablariga to'liq javob bermaydi;
- yengil sanoat korxonalarini sifat menejmenti tizimlari iqtisodiyotni raqamlashtirish tezligidan ancha orqada qolmoqda;
- korxona bo'limganlari orasida o'zaro harakatlardagi uyg'unlik darajasining pastligi;
- kadrlar malakasinig pastligi, raqamli texnologiyalar bo'yicha malakasini oshirish zarurligi [11].

Tadqiqot natijasida yengil sanoat korxonalarini sifat menejmenti tizimini rivojlantirish yo'naliishlari ishlab chiqildi:

1. Korxona faoliyatiga innovatsion texnika-texnologiyalarni joriy etish.

Innovatsion raqamli va kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi bilan korxonalarda kiyim-kechaklarni loyihalash va ishlab chiqarish bo'yicha ko'plab vazifalar soddallashtirildi va tezlashtirildi: uskunaning jismoniy parametrlarini smartfon yoki planshet yordamida masofadan turib boshqarish mumkin. Natijada, hozirda munta-zam ishlarning bir qismi avtomatlashtirilgan tizimlar tomonidan bajariladi. Ular odamlarga qaraganda tezroq va ishonchli ishlaydi va bu mahalliy engil sanoat ayniqsa keskin boshdan kechirayotgan kadrlar etishmasligi muammosini hal qiladi [15]. Yengil sanoatni raqamlashtirish natijasida quyidagi natjalarga erishish mumkin:

- sanoatni ishlab chiqarishni raqamlashtirish orqali sezilarli xarajatlar tejaladi (ishlab chiqarishni boshlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni raqamli saqlash va moddiy xarajatlarsiz ko'paytirish mumkin, ortiqcha ishchi kuchini qisqartirish, vaqtini tejash);

- loyihalash bosqichida konstruktoring ishi soddallashtiriladi va tezlashadi (GEMINI das-turini qo'llash);

- 2D CAD va 3D CAD -fayllarining istalgan bosqichida o'zgartirishlar yoki tuzatishlar kiritish imkoniyati;

- doimiy o'zgaruvchan bozor sharoitlariga tez moslashish: partiya hajmini talabga qarab istalgan vaqtida osongina o'zgartirish mumkin;

- ishlab chiqarish liniyasini moslashtirish: 3D texnologiyasi tufayli bir-biridan bir oz farq qiladigan kollektivalar chop etiladi, shaxsiylash-tirilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish liniyalari yaratiladi (Customizatsiya);

- foydalanish mumkinligi va odatiy cheklov-larning yo'qligi.

Hozirda rivojlangan mamlakatlarda yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida Shveysariya, Germaniya, Italiya, Avstriya, Chexiya, Yaponiya, Turkiya, Xitoyning yetakchi kompaniyalarining zamонави yuqori samarali uskunalar qo'llaniladi.

2. Korxona xodimlarini raqamli texnologiyalar bo'yicha malakasini oshirish.

Korxona sifat menejmenti tizimini rivojlanish uchun xodimlarning raqamli texnologiyalar bo'yicha malakasini oshirish zarurdir. Globalizatsiya sharoitida iste'molchilar talabini o'rganish, yenil sanoat mahsulotlari dizaynni ishlab chiqishda raqamli texnologiyalarni qo'llash, haqiqiy va virtual kiyim kolleksiyalarini ishlab chiqish, raqamli brend yaratish ko'nikmalariga ega bo'lish, raqamli kolleksiya displayini tayyorlash, raqamli butiklar, marketpleyslarda do'konlar yaratish uchun internet texnologiyalaridan foydalanish, moda tendentsiyalarini tahlil qilish, raqamli brendni yaratish va tanishtirish uchun marketing strategiyasini ishlab chiqish (do'kon, kolleksiya) kabi ko'nikmalariga ega bo'lish uchun xodimlarni doimiy ravishda malakasini oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Malakali kadrlarni izlash va ishga olish (shu jumladan sifatni boshqarish va nazorat qilish bo'yicha mutaxassislarni).

Nomzodlarni tanlash jarayonini to'g'ri tashkil etish nafaqat biznesingizni kerakli kadrlar bilan ta'minlash, balki mehnat unumdoorligini oshirish va xodimlarga xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Sifatni boshqarish bo'yicha mutaxassislarni tanlash maxsus onlayn modullarni yaratish va boshqarish asosida amalgalashirilishi mumkin. Kompaniya veb-saytda media platformalarini yaratish va unda mutaxassisiga qoyiladigan talablarni belgilash, onlayn so'rovnomalarini test o'tkazish orqali nomzodlarni tanlashga yordam berishi mumkindir. Media platformalardan foydalanish kompaniyalarga tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi, ilmiy hamjamiyatning har qanday vakiliga o'z tajriba va bilimlarini tanitish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy tarmoqlar va media platformalardagi o'zaro aloqalarni boshqarish orqali iqtidorli xodimlarni

aniqlash nafaqat mamlakatimiz ichida va xorijiy mamlakatlardan izlash osonroq bo'ldi.

4. *Xodimlarni sifat mejmenti tizimini rivojlantirish jarayoniga jalg etish.*

Bunda Yaponiya tajribasidan kelib chiqqan xolda ("Sifat to'garaklari") sifatni oshirish bo'yicha turli hil loyihalar ishlab chiqilishiga barcha xodimlarni jalg etish zarur. Har chorakda korxonada xodimlar o'rtasida mahsulot sifatini oshirish, texnik ko'rsatkichlarini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish, yangi dizayn ishlab chiqish, resurslardan to'liq foydalanish bo'yicha ko'rlik tanlovlari o'tkazish kerak. Axborotlarni yig'ish va qayta ishlashni tezlashtirish va tahlil qilish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun elektron platforma yaratilishi kerak bo'ladi. Eng yaxshi fikr va loyiha egalari taqdirlanishi xodimlarni motivatsiyasini oshiradi.

5. *Sifat menejmenti tizimi ishtirokchilari steykxolderlarini xoxish-istaklarini o'rganib, o'zarobir kelishuvga keltirishi zarur.*

Steykxolderlar bilan ishlashda raqamli texnologiyalar yordam beradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida xozirda iqtisodiyotimiz ko'p sohalarida steykxolderlar bilan, shu jumladan mijozlar bilan ishlashda turli dasturlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'loadi. Ish samaradorligini oshirishda CRM (Customs relationship management) das-

turi qo'l kelmoqda. O'zbekistonda ham hozirda ko'p sohalarda foydalanib kelinayotgan dasturlardan biri bo'lgan va mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan BITRIKS24 dasturi samara bermoqda. Bu dastur 1C buxgalteriya hisobini olib borish uchun ERP dastur bilan birgalikda ishlashga qulay. Bitriks 24 - bu kompaniya faoliyati va biznesni boshqarish uchun barcha zarur vositalarni o'z ichiga olgan onlaysiz xizmat. Undan foydalanib, barcha ish aloqalarini, savdolarni, loyihalarni va biznes jarayonlarni yagona makonga o'tkazish va avtomatlashtirish mumkindir. Bitriks24 funksionalligi xodimlarga yagona korporativ portalda birgalikda ishlashga yordam beradi. U korporativ messenjer, videokonferensaloqa tizimi, vazifalarini sozlash moduli, CRM va jamoaviy ish uchun zarur bo'lgan boshqa imkoniyatlarni o'z ichiga oladi. Bitriks24 xodimlar vaqtini boshqarish, optimallashtirish va tejashga yordam beradi. Bu butun kompaniyaning savdosini va samaradorligini oshiradi [15].

6. *Sifat menejmenti tizimi faoliyatini uzluskiz nazorat qilish va baholash.*

Korxonalar sifat menejmenti tizimini rivojlantirish uchun menejerlar tomonidan sifat menejmenti tizimi muntazam ravishda baholanishini talab qilinadi, buning uchun esa kompaniyaning umumiy boshqaruv tizimi va boshqa bo'limlar sinxron ishlashi kerak.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Управление качеством: учебник / коллектива авторов; под общей редакцией С.А.Зайцева. – Москва : КНОРУС, 2018. -422с. – (Бакалавриат и магистратура). 9-10 стр.
2. Ребрин Ю.И. Управление качеством: Учебное пособие. Таганрог:Изд-во ТРТУ, 2004. 8 с.
3. Correa, P. G., Fernandes, A. M., Uregian, C. J. Technology adoption and the investment climate:firm-level evidence for Eastern Europe and Central Asia / P. G. Correa,A.
4. Халилов Н.Х., Сафина Н.Т. "Sanoat korxonalarida sifat menejmenti tizimi rivojlanishini baholash bo'yicha yondashuvlar"; ISSN 2181-1539 277 Andijon mashinasozlik instituti Ilmiy-mexnika jurnali №2, 2023 yil www.andmiedu.uz (229-237 betlar) (OAK Jurnal).
5. Мишин В.М. Управление качеством: Учебник для студентов вузов, обучающихся по специальности «Менеджмент организаций»/ В.М. Мишин — 2-е изд. перераб. и доп. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. – 7-9 с.
6. Ковригин Е.А., Васильев В.А. Пути развития СМК в условиях цифровизации // Компетентность / Competency (Russia). — 2020. — № 6. (стр. 12-17)
7. Н.С.Яшин "Развитие методологии анализа результативности системы менеджмента качества промышленных предприятий". [электронный ресурс] <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-metodologii-analiza-rezulativnosti-sistemy-menedzhmenta-kachestva-promyshlennyh-predprivaty/viewer>
8. Просвиркина, Е. Ю "Влияние управления человеческими ресурсами на результаты деятельности банков на российском рынке": дис....канд. экон. наук 08.00.05 / Просвиркина Елена Юрьевна. – М., 2015. – С.64-70.
9. Е.С.Григорян, Н.С.Яшин "Методические подходы к оценке результативности системы управления качеством". [электронный ресурс] <https://cyberleninka.ru/article/n/metodicheskie-podhody-k-otsenke-rezulativnosti-sistemy-upravleniya-kachestvom>
10. O'zbekiston respublikasi xuzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>
11. Халилов Н.Х., Сафина Н.Т. «Современные проблемы управления качеством на предприятиях лёгкой промышленности в Республике Узбекистан». Colloquium-journal №15 (138), 2022 Część 1 (Warszawa, Polska). (ISSN 2520-6990 ISSN 2520-2480) 81-83p. <https://colloquium-journal.org/wpcontent/uploads/2022/06/Colloquium-journal-2022-138-1.pdf>